



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**



**GAZETA TILI VA PUBLITSISTIK JANRLARNING  
LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI  
LINGUOSTYLISTIC FEATURES OF NEWSPAPER LANGUAGE  
AND PUBLICISTIC GENRES**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/XEEY4503](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/XEEY4503)

**Bozorova Sabohat Ramazonovna**

*Katta o'qituvchi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

[sabohatbozorova1970@gmail.com](mailto:sabohatbozorova1970@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Gazetaning asosiy vazifasi jamiyat hayotida kechayotgan voqea-hodisalar va kundalik faoliyat haqida tezkor, ishonchli hamda ta'sirchan axborot yetkazishdan iborat. Hozirgi globallasuv sharoitida bu vazifani bajarish yanada murakkablashmoqda. Gazeta tili sintaktik, leksik va stilistik jihatdan rang-barang bo'lib, u tahlil uchun boy material vazifasini bajaradi. Publitsistik matnlarda xabar, maqola, reportaj, suhbat, korrespondensiya, sharh, ocherk, felyeton, pamflet kabi janrlarning bir-birini to'ldirishi kuzatiladi. Ayniqsa, lavha va korrespondensiya kabi kichik janrlar xalq tili boyligini yozma adabiy nutqqa olib kirishda muhim o'rin tutadi. Gazeta tili uchun tezkorlik, ta'sirchanlik va ommaboplikning uyg'unligi, informativlik bilan emotsionallikning birligiga asoslangan nutqiy tizim xosdir. Shuningdek, publitsistik janrlarning o'zaro integratsiyasi o'zbek adabiy tilining funksional-uslubiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *gazeta tili, publitsistika, lingvostilistik xususiyatlar, janrlar, lavha, korrespondensiya, adabiy til.*

**Annotation.** *The main function of a newspaper is to deliver prompt, reliable, and expressive information about events and activities taking place in society. In the context of globalization, fulfilling this task has become increasingly complex. The newspaper language, characterized by its syntactic, lexical, and stylistic diversity, provides a rich basis for linguistic analysis. Various genres such as news reports, articles, interviews, correspondences, reviews, sketches, feuilletons, and pamphlets intersect and complement one another within publicistic discourse. In particular, minor genres such as sketches and correspondences play a significant role in integrating the richness of spoken language into written literary expression. The unity of promptness, expressiveness, and accessibility, along with the combination of informative and emotional elements, defines the linguistic system of newspapers. The interaction and integration of publicistic genres contribute notably to the functional and stylistic development of the modern Uzbek literary language.*



**Keywords:** newspaper language, publicistics, linguostylistic features, genres, sketch, correspondence, literary language.

“Gazeta ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ilmiy hayotga oid dolzarb axborotni hozirjavoblik bilan turli adabiy shakl(janr)larda ommaga yetkazadi va shu yo‘l bilan o‘z o‘quvchilarida kundalik turmush voqealariga nisbatan ma’lum munosabat va tasavvur paydo bo‘lishiga, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy g‘oya va e’tiqodlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi, jamoatchilik fikrining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi” [ŸMƏ, 2001:534].

So‘zlashuv tili boyligining gazeta tiliga kirib borishida publitsistik maqola, reportaj va boshqa janrlar bilan bir qatorda lavha, etyud kabi kichik janrlar ham alohida o‘rin egallaydi. Lavha janri mavzuning ancha torligi, cheklanganligi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Lavha uchun, odatda, korxonalar, xo‘jaliklar va boshqa sohalarida bo‘ladigan ba’zi jarayonlar mavzu qilib olinadi. Lavhada jurnalist o‘z taassurotlari haqida juda qisqa, ammo jonli va obrazli tarzda fikr yuritadi, o‘z kuzatishlarini badiiy shakllarda bayon etadi. Tabiiyki, buning uchun ifoda obyektini oldindan belgilanishi zarur.

Turli yillardagi gazetalar sahifalaridan o‘rin olgan lavhalar o‘qilganda, ko‘pincha, tabiatda bo‘ladigan holatlar tasviri, fasllarda amalga oshiriladigan ishlar, mehnat jarayonlari, o‘quvchilarga estetik ruh bag‘ishlovchi manzaralar, ya’ni tabiat ko‘rinishlari gazetxonlar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Masalan: “Dehqon mehnatining mahsuli shaharliklar dasturxonini bezaydi. Do‘kon va bozor peshtaxtalari sarxil mevalarga to‘ladi” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1991-yil, 8-avgust). *Yam-yashil bog‘lar, bahor gullari, zumrad dalalar, shahar va qishloqlar, qir-adirlar, bahor fasli, ko‘klam yomg‘irlari, kamalak jilosi, qushlar sayrog‘i, bulbullar xonishi, musaffo havo, beg‘ubor osmon, saxiy quyosh* va boshqa ko‘pgina so‘zlar, iboralar bahor faslini eslatadi. Yoki yoz faslida: “Musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas oldilar” (“Qishloq haqiqati” gazetasi, 1991-yil, 31-iyul) va h.k. Yoz fasli tasviriga bag‘ishlangan *yoz yomg‘iri, yoz yomg‘iridan so‘ng tabiat yanada go‘zallashib ketdi* kabi tasvirlar yordamida gazetxon yoz faslidagi tabiat go‘zalliklarini his etishi mumkin. *Oltin kuz, saxiy dalalar, keng paxtazor, sunbulaning tiniq va sokin suvlari, zilol buloqlar, to‘kin-sochinlik, tiniq, shaffof suvlar, quyoshning zarrin nurlari, shirin-sharbat mevalar, tabiat go‘zalliklari* kabi nutqiy elementlar tasvir obyektini kuz manzaralari bilan o‘zaro bog‘lovchi, ularni o‘zaro muqoyasa qiluvchi vositalardandir. Bu o‘rinda xalq tili xazinasining yozma adabiy nutqqa, jumladan, gazeta tiliga kirib kelishi va singishida jurnalistlar, muxbirlarning xizmatini alohida qayd etish o‘rinlidir. Ularni nutqda qo‘llashda shu vositalarning ma’nosi hamda nutqdagi vazifasiga jiddiy e’tibor berish muhim. Binobarin, mualliflar bu nutq elementlarining qo‘llanish o‘rni va imkoniyatlarini yaxshi biladi. Natijada so‘z va iboralarning mazmuni va ular zimmasiga yuklangan vazifalar orasida mutanosiblik yuzaga kelganini kuzatish mumkin. Jurnalistlar faqat obrazlilikka berilib ketmaydi, balki gazetalarning voqelikni oddiy, aniq, ommabop tilda,



kundalik nutqimizda qo‘llanuvchi hammabop leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalash kabi asosiy, yetakchi omilini hisobga oladi. Gazetaning o‘ziga xos ommaviylik, tezkorlik, hozirjavoblik xususiyatlarini hamisha nazarda tutgan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Demak, oddiy va rasmiy xabarlar ifodasi, asosan, informativlikdan iborat bo‘lsa, boshqa xil materiallarda informativlik va ta’sirchanlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Buning o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, tasvirda har kungi oddiy, betaraf so‘zlar, birikmalar, tayyor standart vositalardan tashqari, obrazli so‘z-iboralar, ta’sirchan jumlar ham faol ishtirok etadi. Chunki bu yerda nutq vositalarining informativlik vazifasi ustiga yana qo‘shimcha vazifa: ta’sirchanlikni oshirish, emotsionallikni ta’minlash, ijtimoiy munosabat bildirish, baho berish ham yuklanadi. Gazeta tilida standart va tezkorlik, ta’sirchanlikning o‘zaro qo‘shilishi, birikishi gazeta matnlaridagi asosiy fikrni, muhim g‘oya va qarashlarni aniq aks ettiruvchi samarali imkoniyat bo‘lib xizmat qiladi.

“Gazeta sahifalaridagi matnlarning uslub va janr jihatdan xilma-xilligi, ularning ko‘pchiligida muallif nuqtayi nazari, fikrining faolligi, bu materiallar nutqining kommunikativ-ta’sirchan yo‘nalishi kabi xususiyatlar shu matnlarning uslub va janr farqlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan turli tomonlarini, xilma-xil jihatlarini o‘zaro umumiy tarzda bir butun qilib birlashtirib turuvchi yaxlit nutq sifatidagi tuzilishga, bir xil qurilish tizimiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu borada har bir funksional uslub hamda janr o‘ziga xos shakli, holati, xususiyati bilan farq qiladi, ammo barcha kommunikativ qurilishlar umumiy nutqiy asosni taqozo etadi” [Мамалыга, 1983:5].

Ijtimoiy hayotdagi muhim masalalarni aks ettiruvchi hozirjavob publitsistik janrlardan biri korrespondensiyadir. Korrespondensiya imkoniyati katta, qamrovi keng dolzarb janrdir. Bu janr orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim masalalari va uni hal etish yo‘llari o‘rtaga tashlanadi. Bunda axborot berish va chuqur tahlil qilish o‘zaro qo‘shilgan, bog‘langan tarzda amal qiladi.

“Korrespondensiya (lot.*correspondeo* yoki *correspondentia* – javob beraman, bildiraman) – publitsistik janr. Unda ma’lum davr va o‘rindagi aniq ijtimoiy jarayon qamrab olinadi. Korrespondensiya 2 xil – axborot va tahliliy tarzda bo‘ladi. Axborot korrespondensiyada, odatda, muallif shaxsan o‘zi ko‘rgan voqealarni yoritadi, xabarlarni dalillar asosida tahlil etadi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Tahliliy korrespondensiyada ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar demokratik nuqtayi nazardan tahlil etilib, amaliy xulosalar chiqariladi. Korrespondensiya matbuotda eng keng tarqalgan janrlardan biri” [ЎМЭ, 2003:46].

Korrespondensiya janri joylardan voqea-hodisalar, faktlar haqida faqat quruq xabar berish, bayon etish bilangina cheklanmasdan, ularning mazmunini tahlil qiladi va mohiyatini tushuntiradi. Demak, bu janrning asosiy va yetakchi vazifasi ma’lum masalani tahlil qilish yo‘li bilan uning tub mohiyatini ochish, xulosalar chiqarish, umumlashtirishdir. Ijtimoiy hayotdagi yutuqlarni ommalashtirish,



kamchilik va nuqsonlarni tanqid qilish orqali bartaraf etishga qaratilgan korrespondensiya janridan foydalanish tamoyili ham uning ana shu xususiyati bilan uzviy bog'liq. Matndagi ma'noni ochishga qaratilgan nutq vositalari, ko'pincha, mantiqiy-intellektual xarakterda bo'ladi. Ammo shu bilan birga, o'zida o'zni bilan maqola, ocherk, reportaj va boshqa janrlar xususiyatlarini ham mujassamlashtirib, o'sha janrlarga xos so'z, ibora, atama va jummalarni qo'llashni taqozo etadi.

Korrespondensiyada gap bir masala yoki bir-birini to'ldirib boruvchi bir necha fakt xususida boradi. Qisqasi, korrespondensiya turli masalalarni ko'tarib chiqib, ilg'or usullarni tatbiq etish, yangi quvvatlarni ishga solishga undovchi janrdir. Bunda joylardan olingan yangiliklar aniq dalillar asosida chuqur tahlil etilib, amaliy xulosalar chiqariladi. Korrespondensiya matnini oson va yengil tushunib olish uchun so'z qo'llashda aniqlikka erishish, ixchamlikka intilish, fikrni to'g'ri, haqqoniy va aniq ifodalash muhim ahamiyatga egadir.

Gap faqat shakl yoki janrda emas, balki, birinchi galda, har bir materialning mazmuni va g'oyasi muhim ahamiyatga ega. Matn qanday shakllangan bo'lmasin, qanday janrda ifoda etilgan bo'lmasin, hamisha ilg'or, muhim va dolzarb fikrlarni olg'a surishi hamda o'z davriga faol xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun bu yo'lda jurnalistdan obyektiv bo'lish, har qanday masalaga vijdonan yondashish, voqea-hodisalarga har tomonlama haqqoniy munosabatda bo'lish, faktlarni chuqur tahlil qilish va to'g'ri tushuntirish talab etiladi. Binobarin, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish publitsistik nutqning yetakchi mezonidir.

Gazeta tiliga yaxlit bir narsa, bir butun hodisa sifatida qaraganimizda undagi tezkor-ta'sirchan nutq vositalari bilan standart nutq vositalarining, shuningdek, boshqa xil betaraf elementlarning doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda qo'llanishi, nutqda ularning o'zaro almashinib turishi, bir-birini taqozo qilishi, ya'ni bu nutq vositalarining hamisha dialektik birlik sifatida amal qilishi gazeta tili uchun xarakterli xususiyat, uzluksiz holat va jarayondir.

Turli vaziyatlardagi voqea-hodisalarni o'ziga xos nutq vositalari bilan aks ettirish eng ma'qul so'z-iboralarni qo'llash, munosib muqobil birliklarni tanlash, har xil shakldagi ta'sirchan jummalarni ishlatishni taqozo etadi.

Hozirgi gazeta tili davom etib kelayotgan an'anaviy kitobiylik doirasidan, iloji boricha, chiqib ketishga intiladi. Gazeta tiliga tezkorlik, ta'sirchanlik, xalqchilik bag'ishlovchi tasviriy vositalarni, jumladan, so'zlashuv nutqi elementlarini olib kirishga harakat qiladi. Albatta, bu holat har qaysi mavzu, materialning xarakteri va mazmuniga, nutqning yo'nalishiga, matn mualliflarining individual mahoratiga bog'liqdir.

Gazeta tili tobora rivojlanmoqda. Axborot asrining talabi ham shu. Ifodalarda gazetalarning o'ziga xosligiga e'tibor berish, nutq vositalarini gazetalarning butun faoliyati bilan, ularning tildan tashqari omillari bilan bog'liq holda qo'llash aniq ko'rinib turadi. Bu, bir tomondan, har bir gazetaning o'ziga xos xususiyatining



yuzaga chiqishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, o‘zbek adabiy tili funksional uslubiyati taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент: Навоий университети НМУ, 2020.
2. Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Тошкент: Фан, 1983.
3. Вещикова И.А. Публицистический стиль как единица в системе функциональных разновидностей языка. – Вестник Московского университета, филология, 1992, №1.
4. Мамалыга А.И. Структура газетного текста. – Киев: Вища школа, 1983.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, II jild. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2001.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, V jild. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2003.



## MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
<b>II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
<b>III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
<b>V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774